

MUROD MUHAMMAD DO‘ST ASARLARIDA DIALEKTIZMLAR

Nazira Uralovna Berdiyeva

Termiz Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası
o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Dialektizmlar milliy tilning ajralmas qismi sifatida badiiy asarlarda ham o‘z o‘rniga ega. Dialektlardan o‘z o‘rnida va umumli foydalanish yozuvchi mahoratida dalolatdir. Murod Muhammad Do‘st asarlarida dialektizmlardan keng foydalangan. Negaki uning qahramonlari oddiy odamlar. Ushbu maqolada dialektizmlarning badiiy asarlardagi o‘rni, Murod Muhammad Do‘stning dialektizmlardan foydalanish mahoratini ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Dialekt, dialektizmlar, fonetik dialektizmlar, leksik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar, qipchoq lahjasi, personaj nutqi

KIRISH

Badiiy ijodda dialektizmlar narsa, voqea, hodisalarga mahalliy tus berish uchun qo‘llaniladi. Dialektizmlar personajlar nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq bunday qo‘llash tufayli dialektizmlar adabiy tilga oid bo‘lib qolmaydi. Dialektizmlardan o‘rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman, nutqning badiiyligini, uslubning fazilatini, ta’sirchanligini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Dialekt so‘zlar keng o‘quvchi uchun mo‘ljallangan yozma matnlarda ishlatilganda badiiy asar tilida alohida rol o‘ynaydigan dialektizmlarga aylanadi. Muallif asarida ular mahalliy xususiyatlarni, shuningdek, ekzotizmlarni qayta yaratadilar va tarixiylik kabi voqelikni real tasvirlash vositalaridan biriga aylanadi. Dialektizmlar muallif nutqidan ko‘ra dialoglarda ko‘proq qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ko‘lami bir yoki bir nechta hududda chegaralangan so‘zlardan foydalanish zaruriyat va badiiy maqsadga ko‘ra belgilanishi kerak. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarning aks etishi dialektizmlar deyiladi. Bunda shevadagi qaysi qatlamning aks etishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar, leksik dialektizmlar kabi turlarga bo‘linadi. Leksik dialektizmlar shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda

qo'llanilishidir. Masalan, "Silaroq qilib quyding endi" (silaroq-to'laroq, N. Yaxshiboyev "Lolazor"). Fonetik dialektizmlar badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Masalan, "Nazar, men muni unutmayman, jo'ra!" (muni- buni, Oshno "Lolazor"). "Ma'lumki fonetik dialektizmlarda emotsional bo'yoq kuchli bo'lmaydi. Bundan tashqari, shevaga xos bo'lgan tovushlar sistemasini faqatgina transkripsiya orqali berish mumkin." Morfologik dialektizmlar badiiy asarlarda shevaga xos morfologik elementlarning qo'llanilishidir. Masalan: "Ular bir yig'nalib kelsa-da sizday ulug' bir insonning gaplarini o'z qulog'i bilan eshitsa". (yig'nalib - yig'ilib "Lolazor"). Sintaktik - stilistik dialektizmlar gap qurilishida shevaga xoslikda ko'rinadi: "O'sha muharrir bechora (endi qaytish qilib ketdi) shu gapni aytib dumalab-dumalab kulardi" yoki "Maynang but. Hali sen zo'r olim-polim bo'p ketasan-ov" (N. Yaxshiboyev "Lolazor"). Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko'rinishidir. Shu jarayonda badiiy so'z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o'tadigan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etib kelinadi. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. "Badiiy asar tilining ifodaliligi, qahramonlar nutqining individuallashtirishga ko'p jihatdan o'rinli va me'yorida qo'llanilgan sheva unsurlariga bog'liq".²

Badiiy adabiyotda dialektizmlardan ikki o'rinda foydalaniladi:

1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida;

2) qahramonning xarakterini, o'ziga xosligini ko'rsatish uchun. Murod Muhammad Do'st o'z asarlari bilan adabiyotimizning kitobiylashgan tilini yangilab, unga jonli xalq tili ranglari va ohanglarini olib kirdi. Sheva doirasida qolib ketayotgan so'z va iboralarning adabiy tildan o'rin olishga to'la huquqli ekanini isbotlab berdi. Yozuvchi o'z ijodida folklor uslubidan keng foydalanadi. Uning tili yumorga boy, har bir qahramoni o'z fikrlash tarziga ega. Murod Muhammad Do'st asarlari qahramonlarining aksariyati qipchoq shevasida so'zlashuvchi kishilardir. Uning o'zi ham Samarqand viloyati Jom qishlog'ida tug'ilgani ham ahamiyatga ega. Samarqand viloyatining aksar aholisi shu shevaga mansub kishilardir. Chunki qipchoq lahjasiga mansub shevalar juda katta hududga tarqalgan. O'zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to'g'riligiga dalildir. Haqiqatan ham, qipchoq lahjasining vakillari Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysidan tortib Andijon va Farg'ona viloyatlarida ham yashaydilar. Sirdaryo, Samarqand,

Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo , Xorazm viloyatlarining ko‘pchilik qismi shu lahja vakillaridir. Qipchoq lahjasi shevalari o‘z fonetik belgilariga ko‘ra “ j” lashgan va ko‘pincha “ qishloq shevalari “ nomi bilan xarakterlanadi. Bunga misol tariqasida “ Lolazor” romanining aksar qahramonlari nutqidagi so‘zlarga e’tibor qaratishimiz mumkin. “Lolazor” romani turg‘unlik yillaridagi insonlar taqdiri aks etgan murakkab hayotiy jarayonga bag‘ishlangan. Romanda Nazar Yaxshiboyev timsolida sho‘rolar tuzumining yemirilishi va kommunistik mafkurani tanazzulga olib kelgan ijtimoiy sabablar ishonarli tasvirlanadi, inson va hokimiyat munosabatidek qadimiy mavzu muayyan davr misolida chuqur tadqiq etiladi. Shu bilan birga, muallif qahramonlar xarakterini yaratishda shevadan unumli foydalanadi. Bunda adib fonetik, leksik-semantik, morfologik dialektizmlarni qo‘llash orqali ham qahramonlarning tabiatini , xarakterini, ham ularning qaysi hududga mansubligini ochib berishga harakat qiladi. Masalan, kasalxonada Nazar Yaxshiboyev bir sodda , to‘pori odam bilan tanishib qoladi (Chori Mamatqulov deb tanishtiradi u o‘zini). Nazar Yaxshiboyev unga : “ Men bilan o‘zingizning shevangizda gaplashsangiz. Bizlardayam andak bor, o‘zimiz jo‘qchi bo‘lmasak ham, har holda, hamsoyalaringiz jo‘qchi bo‘lgan. Bulduruqning gird tevaragi qo‘ng‘irot edi. Birgina biz barlos urug‘idan” deydi. Yoki asar qahramonlaridan biri Jonuzoq karvon nutqida ham qahramonning dangalchi, bir so‘zli ekanini muallif sheva orqali tasvirlaydi : ”Bitta shartim bor. Pulmul beraman deb bir joylarimni tumovratmaysan.”.

XULOSA

Xullas, Murod Muhammad Do‘st o‘z asarlarida dialektizmlardan unumli foydalangan. Yozuvchi dialektizmlardan asar qahramonlarining oddiy xalq vakili ekanligini ko‘rsatish uchun foydalangan. Badiiy asarlarda dialektizmlardan o‘rinli foydalanish yozuvchi mahoratining yaqqol isbotidir.

REFERENCES

1. Fayzullayev B .G‘. O‘zbek tili va adabiyoti.1975.N-3.
2. Yo‘ldoshev M.Cho‘lpon so‘zining turlari.T.Ma’naviyat.2002.B.29.
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.T.
4. Murod Muhammad Do‘st. Lolazor. T. 1988
5. uz.m.wikipedia.org